Mazkur global o'sish tendensiyasiga O'zbekiston ham faol ravishda qo'shilmogda. 2025-yilda mamlakatga turistik maqsadda tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 11,7 million nafarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 3,5 million kishiga oshganini ko'rsatadi (2024-yilda 8,2 million nafar) [3]. Turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 2024-yildagi 3,52 milliard AQSH dollaridan 2025-yilda 4,8 milliard AQSH dollariga yetdi. "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida 20 million xorijiy sayyohni qabul qilish hamda turizm eksportini 6 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi belgilangan [4]. Turistlar oqimining o'sishidagi asosiy omillardan biri mamlakatning boy madaniy-tarixiy merosidir. Xususan, sayyohlarning katta qismi Samarqand, Buxoro va Xiva kabi Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan tarixiy shaharlarga tashrif buyurmoqda.

Buxoro viloyati O'zbekiston turizm tizimida alohida o'rin egallaydi. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Buxoro shahrining tarixi ikki ming yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi va u Markaziy Osiyodagi eng yaxshi saqlanib qolgan o'rta asr shahri sifatida e'tirof etiladi [5]. YUNESKOning ikkinchi mezon Buxoroning Markaziy Osiyodagi shaharsozlik rivojiga ko'rsatgan ta'sirini, to'rtinchi mezon esa shaharning o'ziga xos o'rta asr shahar tuzilishini deyarli o'zgarmagan holda saqlab qolganini tasdiqlaydi [6]. 1993-yildan buyon YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Buxoro tarixiy markazida 260 dan ortiq tarixiy-me'moriy obidalar mavjud bo'lib, ular har yili yuz minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etmoqda [5]. Xalqaro turizm nuqtai nazaridan Buxoro meros shahri sifatida aylanma turizm modellarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, meros obyektlaridan foydalanish madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqaror foyda keltiradi [7].

Tarixiy markaz tarkibidagi muhim me'moriy yodgorliklardan biri Gavkushon ansambli hisoblanadi. Ushbu majmua Toqi Zargaron va Labi Hovuz ansambli oraliqida joylashgan bo'lib, uning nomi fors tilida "ho'kiz so'yiladigan joy" ma'nosini anglatadi. XVI asrgacha mazkur hududda qassobxona va chorva bozori mavjud bo'lgan. Majmua Abdullaxon II hukmronligi davrida, 1562–1565-yillarda bunyod etilgan bo'lib, qurilish ishlari Jo'ybor shayxi Xo'ja Sa'd homiyligida amalga oshirilgan [19]. Xo'ja Sa'd "Xo'ja Kalon" ("Buyuk xo'ja") nomi bilan mashhur bo'lib, keyinchalik ushbu nom majmua tarkibidagi masjid va minoraga ham berilgan. Majmua madrasa, masjid va minoradan iborat bo'lib, 1993-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga "Buxoroning tarixiy markazi" tarkibida kiritilgan. Gavkushon madrasasi notekis yer maydonida qurilgani sababli trapetsiyasimon shaklga ega bo'lib, bu uning o'ziga xos me'moriy xususiyati hisoblanadi [20].

Turizm oqimining jadal o'sishi bilan bir qatorda muhim boshqaruv masalalari ham yuzaga kelmoqda. N. Srivastava ta'kidlaganidek, turistik yuklamaning me'yorida ortib ketishi "haddan tashqari sayyohlik turizm sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin" bo'lgan holatni yuzaga keltiradi [8]. Sayyohlar sonining nazoratsiz ortishi iqtisodiy foyda bilan birga, me'moriy obidalarining eskirishi, mahalliy aholi uchun qulayliklarning kamayishi va turistik tajribaning sifat jihatdan pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli turistik sig'im (Tourism Carrying Capacity – TCC) konsepsiyasi, ya'ni obyektning barqarorligini saqlagan holda qancha turistni qabul qila olishini aniqlash usuli, bugungi kunda meros turizmini boshqarishning muhim vositasiga aylangan [9; 10].

Mazkur maqolada Gavkushon ansambli misolida fizik sig'im (Physical Carrying Capacity – PCC) va haqiqiy sig'im (Real Carrying Capacity – RCC) ko'rsatkichlarini dala tadqiqotlari asosida aniqlash vazifasi qo'yilgan. Tadqiqot natijalari esa obyekt uchun ilmiy asoslangan turistik oqimni boshqarish qarorlarini ishlab chiqishda qo'llanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik sig'im (Tourism Carrying Capacity – TCC) tushunchasi dastlab ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik turizm tadqiqotlarida mustaqil metodologik yo'nalish sifatida shakllandi. N. Srivastava ta'kidlashicha, TCC o'z mohiyatiga ko'ra "muayyan hududda turistik faoliyatning salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmasdan qabul qilinishi mumkin bo'lgan ziyoratchilar sonining maksimal darajasi"ni anglatadi [8]. Mazkur tushuncha vaqt o'tishi bilan kengayib, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv chegaralarini ham o'z ichiga ola boshladi [10].

Metodologik jihatdan bugungi kunda eng keng tarqalgan yondashuv M. Cifuentes tomonidan IUCN uchun ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi [9]. Ushbu model fizik sig'im (Physical Carrying Capacity – PCC), haqiqiy sig'im (Real Carrying Capacity – RCC) va samarali sig'im (Effective Carrying Capacity – ECC) bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir keyingi bosqich oldingi bosqich qiymatiga tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash orqali aniqlanadi.

Aylanish koeffitsiyenti tushunchasi metodologiyaga ilk bor R. Boullon tomonidan kiritilgan bo'lib, u "kunlik ochiq vaqt / o'rtacha tashrif davomiyligi" formulasini taklif qilgan [14]. Mazkur formula hozirgi kunda ham TCC tadqiqotlarida asosiy hisoblash vositalaridan biri sifatida qo'llanib kelmoqda [9; 13].



Xalqaro miqyosda TCC metodologiyasini madaniy meros obyektlarida qo'llashga oid tadqiqotlar soni so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada ortdi. K. Magabli va A. Al-Shorman Iordaniyadagi Petra YUNESKO meros obyektida fizik sig'imni hisoblash bo'yicha muhim tadqiqot o'tkazganlar. Boullon modeli asosida olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra, Petra obyektining oylik sig'imi 16 200 ziyoratchini tashkil etgan. Shu bilan birga, yanvar oyidan tashqari boshqa fasllarda mazkur ko'rsatkichning oshib ketishi kuzatilgan [12]. Tadqiqot natijalari tarixiy obyektlarda turistlar oqimini mavsumiy boshqarish zarurligini ko'rsatdi.

Diniy va ziyoratgoh maqomidagi meros obyektlari uchun maxsus TCC metodologiyasini R. Jangra va S.P. Kaushik (2017) Hindistondagi Kurukshetra shahrida joylashgan Brahm Sarovar obyektida sinovdan o'tkazganlar [13]. Tadqiqotchilar IUCN formulasi asosida maydon, avtoturargoh, sanitariya nuqtalari, ichimlik suvi va yo'laklar bo'yicha alohida PCC hisob-kitoblarini amalga oshirib, obyektning kunlik maksimal sig'imi 567 534 ziyoratchini tashkil etishini aniqlaganlar [13].

Mazkur tadqiqotning metodologik ahamiyati shundaki, unda turli funksional zonalar uchun bir kishiga mo'ljallangan maydon me'yorlari (1 m<sup>2</sup> dan 10 m<sup>2</sup> gacha) tabaqalashtirilgan holda qo'llanilgan.

A. Erdoğan Turkiyaning Amasya shahridagi ko'p funksiyali YUNESKO meros obyektida Cifuentes modelini zamonaviy meros boshqaruvi sharoitiga muvaffaqiyatli moslashtirib, fizik sig'im (PCC), haqiqiy sig'im (RCC), samarali sig'im (ECC) hamda ijtimoiy sig'im (Social Carrying Capacity – SCC) ko'rsatkichlarini birgalikda hisoblagan [11].

Shuningdek, A. Makhadmeh va hamkorlari Iordaniyadagi dekapolis shaharlardan biri bo'lgan Jerash (Gerasa) arxeologik majmuasida GAT modellashtirish asosida sig'imni baholash metodologiyasini ishlab chiqqanlar [18]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turistlar oqimining ortishi tarixiy yodgorliklar xavfsizligiga sezilarli bosim o'tkazayotgani aniqlangan.

Turistik sig'im masalasi faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi. U turistik manzilning rivojlanish hayotiy sikli bilan ham uzviy bog'liqdir. R.W. Butler tomonidan taklif etilgan TALC (Tourism Area Life Cycle) modeli kashfiyot, jalb etish, rivojlanish, konsolidatsiya, turg'unlik va pasayish bosqichlari orqali turistik sig'imning ortib ketishi manzilning uzoq muddatli barqarorligiga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi [15].

G.V. Doxey esa mahalliy aholining turistlarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi "Bezovtalanish indeksi" (Irridex) modelini ishlab chiqib, turistik yuklamaning ortishi ijtimoiy munosabatlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan [17].

YUNESKO, ICCROM, ICOMOS va IUCN tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon merosi kontekstida ta'sir baholash bo'yicha qo'llanma" esa Buxoro kabi YUNESKO obyektlarida sig'imni baholashning huquqiy va metodologik asoslarini belgilab beradi [16]. Mazkur hujjatda meros obyektlari boshqaruvchilari uchun sig'im hisob-kitoblarini amaliy boshqaruv vositasi sifatida joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Muhriddin Kilichov va hamkorlari Buxoro meros turizmini rivojlantirishda GAT texnologiyalaridan foydalanib, turistik marshrutlarni optimallashtirish modelini taklif qilganlar, biroq aniq sig'im ko'rsatkichlarini hisoblamaganlar [7]. O. Khamidov va N. Khayrullaeva esa Buxoro viloyatida barqaror turizmni rivojlantirish masalalarini o'rganib, turistik infratuzilma imkoniyatlari va obyektlarga tushayotgan yuklamani muhim boshqaruv omillari sifatida ko'rsatganlar [6].

Mazkur adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, M. Cifuentes metodologiyasi xalqaro miqyosda meros obyektlarida samarali qo'llanilayotgan bo'lsa-da [9; 11-13], Buxoro tarixiy markazidagi alohida obyektlar uchun dala tadqiqotlariga asoslangan miqdoriy sig'im o'lchovlari hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi beshta ilmiy metoddan foydalanildi. Kuzatuv metodi doirasida har bir obyektida kamida 50 nafar ziyoratchi bevosita kuzatilib, ularning kirish va chiqish vaqtlari qayd etildi hamda o'rtacha tashrif davomiyligi aniqlandi.

O'lchov metodi asosida obyekt maydonlari GPS asboblari yordamida joyida o'lchandi va kadastr hujjatlari bilan taqqoslandi. Hujjatlar tahlili metodi orqali kadastr ma'lumotlari, obyekt ma'muriyatidan olingan texnik hujjatlar hamda O'zgidrometning ko'p yillik iqlim statistikasi o'rganildi.

Miqdoriy tahlil metodi yordamida dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan ma'lumotlar M. Cifuentes formulalari asosida matematik hisob-kitoblar orqali qayta ishlanib, fizik sig'im (Physical Carrying Capacity – PCC) va haqiqiy sig'im (Real Carrying Capacity – RCC) ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich aniqlandi.

So'nggi bosqichda qiyosiy tahlil metodi qo'llanildi. Olingan natijalar xalqaro meros obyektlarida o'tkazilgan o'xshash tadqiqotlar, jumladan A. Erdoğan, K. Magabli, A. Al-Shorman, R. Jangra va S.P. Kaushik tadqiqotlari natijalari bilan solishtirildi [11; 12; 13].

Ma'lumotlar ikki asosiy yo'nalishda yig'ildi:

1. GPS o'lchov asboblari va kadastr hujjatlari yordamida obyekt maydonlari aniqlandi;



2. har bir obyektida kamida 50 nafar ziyoratchi kuzatilib, kirish va chiqish vaqtlari qayd etildi hamda o'rtacha tashrif davomiyligi hisoblandi.

Fizik sig'im (PCC) formulasi

Fizik sig'im quyidagi formula asosida hisoblandi [9; 14]:

$$PCC = S \times U$$

Bu yerda:

$$S = \frac{E}{a_{och}} + \frac{G}{a_{yop}} + \frac{H}{a_{tor}} + \frac{I}{a_{min}} - \frac{K}{a_{och}} - \frac{L}{a_{och}}$$

Aylanish koeffitsiyenti:

$$U = \frac{\text{Ochiq soatlar}}{\text{Tashrif vaqti (daq)/60}}$$

Belgilar izohi:

Belgi	Ma'no	Bir kishiga maydon (a)
E	Ochiq maydon / hovli	3.0 m <sup>2</sup>
G	Yopiq / ichki zal	2.0 m <sup>2</sup>
H	Tor yo'lak (< 2 m)	1.2 m <sup>2</sup>
I	Minora / tor ko'tarilish	1.1 m <sup>2</sup>
K	Hovuz / suv - ayiriladi	3.0 m <sup>2</sup>
L	Bog' / gulzor - ayiriladi	3.0 m <sup>2</sup>

a qiymatlari R. Jangra, S.P. Kaushik hamda M. Cifuentes tavsiyalariga asoslandi [9; 13].

Haqiqiy sig'im (RCC) formulasi

Haqiqiy sig'im PCC ga iqlim va savdo zonasi bo'yicha tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash orqali hisoblandi [9; 11]:

$$RCC = PCC \times \left(1 - \frac{M + N + O}{\sum A}\right) \times \left(1 - \frac{d_{issiq}}{365}\right) \times \left(1 - \frac{d_{sovuq}}{365}\right)$$

Bu yerda:

- M — savdo rastasi maydoni;
- N — muzey eksponatlari joylashgan hudud maydoni;
- O — xizmat va texnik zonalar maydoni;
- $d_{issiq}$  — yil davomida 35°C dan yuqori bo'lgan kunlar soni (82 kun);
- $d_{sovuq}$  — yil davomida 0°C dan past bo'lgan kunlar soni (30 kun).

Mazkur iqlim ko'rsatkichlari O'zgidromet ma'lumotlari asosida olindi [9].

Natijada umumiy iqlim koeffitsiyenti 71,16% deb qabul qilindi, ya'ni PCC ning 28,84% qismi iqlim cheklolari sababli kamaytirildi.

Yillik va mavsumiy sig'im

Kunlik ko'rsatkichlar asosida yillik va mavsumiy sig'im quyidagi formulalar yordamida hisoblandi:

$$PCC_{yillik} = PCC \times 365$$

$$RCC_{yillik} = RCC \times 365$$

$$PCC_{mavsum} = PCC \times 253$$

$$RCC_{mavsum} = RCC \times 253$$

Bu yerda 253 kun yilning issiq va sovuq ekstremal kunlaridan holi bo'lgan faol turizm mavsumini anglatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Gavkushon Ansambli hududining funksional tarkibini aniqlash maqsadida dala o'lchovlari va kadastr ma'lumotlari asosida asosiy maydon zonalarini tasniflandi. 1-jadvalda ansambl hududidagi ochiq maydonlar, yopiq ichki qismlar, minora hududi hamda foydalanishga cheklangan suv maydonlarining sig'im hisob-kitoblaridagi o'rni keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Gavkushon ansambli - maydon tarkibi<sup>1</sup>

Zona turi	Maydon (m <sup>2</sup> )	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	2 561	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	3 110	qo'shiladi
Minora / tor ko'tarilish (I)	28	qo'shiladi
Hovuz / suv (L)	256	ayiriladi

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Gavkushon Ansamblining umumiy hisoblash maydonida ochiq hovli (2561 m<sup>2</sup>), minora hududi (28 m<sup>2</sup>) hamda yopiq zal qismi (3110 m<sup>2</sup>) asosiy ulushni tashkil etadi. Hovuz hududi (256 m<sup>2</sup>) esa ziyoratchilar foydalanishi uchun mo'ljallanmagan maydon sifatida baholanib, fizik sig'im (PCC) hisob-kitoblaridan chiqarib tashlandi (2-jadval).

2-jadval. Gavkushon ansambli - sig'im natijalari<sup>2</sup>

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	2349.2
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsienti	9
Iqlim koeffitsienti	71.16%
Fizik sig'im - PCC	21 143 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im - RCC	15 045 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	7 717 195 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	5 491 425 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	5 349 179 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	3 806 385 ziyoratchi/mavsum

2-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, Gavkushon Ansambli bir sutka davomida nazariy jihatdan maksimal 21 143 nafar ziyoratchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Biroq iqlimiy cheklavl (82 kunlik jazirama davr hamda 30 kunlik sovuq kunlar) va funksional zonalar bo'yicha tuzatish koeffitsiyentlari qo'llanilgandan so'ng obyektning haqiqiy sig'imi (RCC) 15 045 nafar ziyoratchini tashkil etdi.

Mazkur ko'rsatkich fizik sig'imning (PCC) 71,1 foiziga teng bo'lib, ansamblning yil davomida 253 kun mobaynida faol turistik foydalanish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori tashrif davrlarida ziyoratchilar oqimini tartibga solish va tarixiy muhitning barqarorligini saqlash bo'yicha boshqaruv choralarini izchil takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval. Obyektning yakuniy ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

Ko'rsatkich	Gavkushon
Foydalanish maydoni (m <sup>2</sup> )	5 671
PCC (ziyoratchi/kun)	21 143
RCC (ziyoratchi/kun)	15 045
RCC/PCC nisbati (%)	71.1
Yillik RCC	5 491 425
Mavsumiy RCC	3 806 385

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Gavkushon Ansamblining sig'im ko'rsatkichlari obyektning foydalanish maydoni hamda funksional zonalari tarkibi asosida hisoblab chiqilgan.

Ansamblning fizik sig'imi (PCC) bir kunda 21 143 nafar ziyoratchini, haqiqiy sig'imi (RCC) esa 15 045 nafar ziyoratchini tashkil etadi. RCC/PCC nisbati 71,1 foizga teng bo'lib, bu ko'rsatkich A. Erdoğan tomonidan xalqaro meros obyektlari uchun tavsiya etilgan 40–60 foizlik me'yor oralig'iga nisbatan biroz yuqori bo'lsa-da, obyektning sig'im imkoniyatlari hali barqaror holatda ekanini ko'rsatadi.

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



PCC va RCC o'rtasidagi farq asosan quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- iqlim koeffitsienti (71,16%) — yil davomida tashrif uchun qulay kunlar ulushini ifodalaydi;
- aylanish koeffitsienti (9) — bir sutka davomida bir zonadan necha marta foydalanish mumkinligini ko'rsatadi;
- foydalanish maydonining funksional tarkibi — ochiq maydon (2561 m<sup>2</sup>) va yopiq zal (3110 m<sup>2</sup>) PCC hisobiga to'liq qo'shilgan bo'lsa, minora hududi (28 m<sup>2</sup>) hamda hovuz maydoni (256 m<sup>2</sup>) sig'im hisobidan chiqarib tashlangan.

Shuningdek, ansambl hududida mavjud savdo, muzey va xizmat ko'rsatish zonalari (ularning maydoni 1-jadvalda alohida ko'rsatilmagan bo'lsa-da) RCC ko'rsatkichini kamaytiruvchi qo'shimcha omil sifatida hisobga olindi.

Xalqaro tajribalar bilan qiyoslanganda, A. Erdoğan tadqiqotida Amasya Heritage Site uchun RCC/PCC nisbati 40–60 foiz oralig'ida optimal ko'rsatkich sifatida baholangan [11]. Gavkushon ansambli uchun ushbu nisbatning 71,1 foizni tashkil etishi obyekt sig'imining samarali boshqarilayotganini va hozircha ortiqcha yuklama kuzatilmayotganini anglatadi. Bu jihat Petra obyektida K. Magablih hamda A. Al-Shorman tomonidan aniqlangan sig'imdan ortiq foydalanish holatlaridan farq qiladi [12].

Biroq ikki muhim jihatni alohida ta'kidlash lozim. Birinchidan, Gavkushon ansambli diniy va ziyoratgoh xususiyatiga ega bo'lgani sababli ayrim davrlarda tashriflar keskin ortishi mumkin. R. Jangra va S.P. Kaushik ta'kidlaganidek, diniy obyektlarda sig'im me'yorlariga eng katta bosim odatda bayram va muqaddas kunlarda yuzaga keladi [13]. Shu sababli Gavkushon ansambli uchun mavsumiy boshqaruv rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, ansambl hududidagi savdo va xizmat ko'rsatish zonalari ziyoratchilar harakatini ma'lum darajada cheklashi mumkin. R.W. Butlarning TALC modeli asosida qaralganda, tijorat faoliyatining tarixiy meros hududlarida haddan tashqari kengayishi obyektning funksional muvozanatiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud [15].

Amaliy jihatdan olib qaralganda, tadqiqot natijalari Buxoro shahar hokimligi hamda meros boshqaruvi organlari uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Xususan, Gavkushon ansambli uchun bir sutkada 15 045 nafar ziyoratchi miqdorini haqiqiy sig'im (RCC) asosidagi tavsiya etilgan boshqaruv limiti sifatida qabul qilish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida Gavkushon Ansambli misolida M. Cifuentesning uch bosqichli modeli asosida dala tadqiqotlari orqali fizik sig'im (PCC) va haqiqiy turistik sig'im (RCC) ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Olingan natijalarga ko'ra, ansamblning umumiy foydalanish maydoni 5671 m<sup>2</sup> ni tashkil etdi. Shundan ochiq hovli (2561 m<sup>2</sup>), yopiq zal (3110 m<sup>2</sup>) va minora hududi (28 m<sup>2</sup>) fizik sig'im hisobiga qo'shildi, hovuz maydoni (256 m<sup>2</sup>) esa foydalanishga cheklangan hudud sifatida hisobdan chiqarildi. Aylanish koeffitsienti 9 ga teng deb olinib, obyektning kunlik ochiq vaqti 9 soat, o'rtacha tashrif davomiyligi esa 30 daqiqa etib belgilandi.

Hisob-kitoblar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

- fizik sig'im (PCC) — kuniga 21 143 nafar ziyoratchi;
- haqiqiy sig'im (RCC) — kuniga 15 045 nafar ziyoratchi;
- RCC/PCC nisbati — 71,1%;
- yillik RCC — 5 491 425 nafar ziyoratchi;
- mavsumiy RCC (253 kun) — 3 806 385 nafar ziyoratchi.

Iqlim koeffitsienti 71,16 foiz darajasida baholandi va u yil davomida tashrif uchun qulay kunlar ulushini ifodalaydi. RCC/PCC nisbatining 71,1 foizni tashkil etishi A. Erdoğan tomonidan xalqaro meros obyektlari uchun tavsiya etilgan 40–60 foizlik me'yor oralig'iga yaqin bo'lib, hozircha obyekt sig'im chegarasining buzilmaganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ansambl hududidagi savdo va xizmat ko'rsatish zonalari, shuningdek, bayram va muqaddas kunlarda tashriflarning keskin ortishi sababli ayrim davrlarda vaqtinchalik yuqori yuklama yuzaga kelishi ehtimoli mavjudligi aniqlandi. Xalqaro tajribalar bilan taqqoslanganda, Petra obyektida K. Magablih hamda A. Al-Shorman tomonidan qayd etilgan sig'imdan ortiq foydalanish holatlari bilan solishtirganda, Gavkushon ansambli hozircha bunday holat kuzatilmadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

Birinchidan, Gavkushon Ansambli uchun kunlik 15 045 nafar ziyoratchi miqdorini rasmiy boshqaruv limiti sifatida belgilash hamda uni chipta va tashrif nazorati tizimlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish tavsiya etiladi.



Ikkinchidan, ansambl hududidagi savdo rastalari va xizmat ko'rsatish texnik zonalarini obyekt tashqarisiga ko'chirish orqali ziyoratchilar uchun foydali harakat maydonini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, bayram va muqaddas kunlarda tashriflar oqimini tartibga solish maqsadida mavsumiy boshqaruv rejasini ishlab chiqish zarur.

To'rtinchidan, keyingi tadqiqot bosqichlarida xodimlar soni, sanitariya infratuzilmasi, hojatxona sig'imi hamda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali sig'im (ECC) ko'rsatkichlarini aniqlash tavsiya etiladi.

Beshinchidan, ushbu tadqiqotda qo'llanilgan metodologiyani Buxoro tarixiy markazidagi boshqa meros obyektlariga ham tatbiq etish orqali barqaror turizm boshqaruvining yagona ilmiy-amaliy tizimini shakllantirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. [UN Tourism](#). International tourist arrivals up 4% in 2025 reflecting strong travel demand around the world [Elektron resurs]. – URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourist-arrivals-up-4-in-2025-reflecting-strong-travel-demand-around-the-world>
3. [UN Tourism](#). International Tourism Recovers Pre-Pandemic Levels in 2024 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024>
4. [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi](#). 2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66309-2025-jilda-zbekistonga-11-7-million-nafar-turist-kelgan-2>
5. [UNESCO World Heritage Centre](#). Historic Centre of Bukhara [Elektron resurs]. – URL: <https://whc.unesco.org/en/list/602/>
6. Khamidov O., Khayrullaeva N. Sustainable Tourism Development in the Bukhara Region: A Development Research Model at Heritage Resources // *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*. – 2021. – Vol. 1, No. 1. – URL: <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/download/1162/1158/2247>
7. Kilichov M., Olsavsky F., Baiburiev R., Khayrullaeva N., Dávid L.D. Optimizing Sustainable Tourism Routes through GIS to Enhance Tourist Length of Stay in Bukhara // *Journal of Cultural Analysis and Social Change*. – 2026. – Vol. 11, №1. – P. 1771–1787. – DOI: 10.64753/jcasc.v11i1.4187.
8. Srivastava N. Measurement of Carrying Capacity of Tourist Destinations: A Case Analysis // *International Journal of Tourism and Travel*. – 2017. – Vol. 10, No. 1. – P. 38–46.
9. Cifuentes Arias M. Determinación de capacidad de carga turística en áreas protegidas. – Turrialba (Costa Rica): CATIE, 1992. – 28 p.
10. [UN Tourism](#). Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations – A Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2004. – 516 p.
11. Erdoğan A. Carrying Capacity Assessments for Sustainable Tourism in a Heritage Site // *Advances in Hospitality and Tourism Research (AHTR)*. – 2025. – Vol. 13, No. 3. – P. 237–274. – DOI: 10.30519/ahtr.1483060.
12. Magablih K., Al-Shorman A. The Physical Carrying Capacity at the Cultural Heritage Site of Petra // *Tourism Analysis*. – 2009. – Vol. 13, No. 5–6. – P. 511–515. – DOI: 10.3727/108354208788160414.
13. Jangra R., Kaushik S.P. Assessment of Physical Carrying Capacity for Managing Sustainability at Religious Tourist Destinations // *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*. – 2017. – Vol. 5, Iss. 1, Article 5. – URL: <https://arrow.tudublin.ie/jrtp/vol5/iss1/5/>
14. Boullon R. Framework Guidelines for Assessing Carrying Capacity // *FAO Corporate Document Repository*. – 1985. – URL: <https://www.fao.org/docrep/X5626E/x5626e0e.htm>
15. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // *Canadian Geographer*. – 1980. – Vol. 24, No. 1. – P. 5–12.
16. [UNESCO World Heritage Centre](#); ICCROM; ICOMOS; IUCN. Guidance and Toolkit for Impact Assessments in a World Heritage Context. – Paris: UNESCO, 2022. – 148 p.
17. Doxey G.V. A Causation Theory of Visitor-Resident Irritants: Methodology and Research Inferences // *Proceedings of the Travel Research Association 6th Annual Conference*. – San Diego, 1975. – P. 195–198.
18. Makhadmeh A., Al-Badarneh M., Rawashdeh A., Al-Shorman A. Evaluating the Carrying Capacity at the Archaeological Site of Jerash (Gerasa) Using Mathematical GIS Modeling // *Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Sciences*. – 2020. – Vol. 23, No. 2. – P. 159–165. – DOI: 10.1016/j.ejrs.2018.09.002.
19. [UNESCO World Heritage Centre](#). Buxoro tarixiy markazi // UNESCO Butunjahon merosi ro'yxati.
20. [Meros.uz](#). Xo'ja Govkushon ansambli [Elektron resurs]. – URL: <https://meros.uz/object/xoja-govkushon-ansambli>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (2)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---